

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.22/01.02.2022 T.144.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI

SHARIPOV ALISHER KALBAYEVICH

VODOROD-BENZIN YONILG'ISIDA ISHLAYDIGAN AVTOMOBILLAR
MOTOR MOYINING CHEGARAVIY ISH MUDDATINI ASOSLASH

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in technical
science**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

Sharipov Alisher Kalbayevich

Vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining
chegaraviy ish muddatini asoslash..... 3

Sharipov Alisher Kalbayevich

Validation of automobiles engine oil life cycle in a hydrogen-gasoline fueled
engine..... 21

Шарипов Алишер Калбаевич

Обоснование предельного срока службы автомобильного моторного
масла, работающего на водородно-бензиновом топливе..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 46

**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.22/01.02.2022 T.144.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI

SHARIPOV ALISHER KALBAYEVICH

**VODOROD-BENZIN YONILG‘ISIDA ISHLAYDIGAN AVTOMOBILLAR
MOTOR MOYINING CHEGARAVIY ISH MUDDATINI ASOSLASH**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya kamissiyasida B2023.4.PhD/T3763 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkentdagi Turin politexnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://polito.uz/>) va «ZiyoNet» Axborot – ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Inoyatxodjaev Jamshid Shuxratullayevich

Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xankelov Tavbay Qarshiyevich

Texnika fanlari doktori, dotsent.

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti huzuridagi PhD.22/01.02.2022. T.144.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisda bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 17. Tel.: (99871) 246-70-82, faks: 71-246-60-92, e-mail: info@polito.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 17. Tel.: (99871) 246-70-82, faks: 71-246-60-92, e-mail: info@polito.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.Mahamatov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

T.R.Pulatov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

S. Ruzimov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobillar uchun yonilg‘i manbai bo‘lgan neft mahsulotlariga yani benzin va dizelga talab juda oshib avtomobillardan chiquvchi zaharli gazlar miqdori 3.1% va 1% ga oshgan.¹ Avtomobillar ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish va yonilg‘iga bo‘lgan tendensiyalarini tahlil qilish an-anaviy yonilg‘i turlari kamaytirish va qo‘shimcha sifatida alternativ yonilg‘i turlaridan jumladan ekologik toza, xavfsiz va arzon energiya manbai vodorod gazidan bosqichma-bosqich foydalanishni taqoza etmoqda. Alternativ vodorod gazi hozirda global energetika sektorida turli rivojlangan davlatlar tomonidan katta qiziqishni uyg‘otmoqda bu esa o‘z-o‘zidan kelajakda ommaviy alternativ yonilg‘i turidan foydalanib kengaytirib mavjud muommalarini hal etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda, benzin bazali avtomobillarda qo‘shimcha sifatida vodorod yonilg‘isi qo‘llagan holda, motor moyi chegaraviy ish muddatini aniqlash uchun resurs tejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy texnikaviy yechimlari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, motor moylarining parametrlarini chuqur statik tahlil qilish orqali dvigatelidan ishonchlilik ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirishga xizmat qilmoqda. Vodorod yonilg‘isi o‘zining gidroskopik, fizik hamda kimyoviy xususiyatlari bilan avtomobil motor moylarining ishlash davomiyligini yaxshilashga qaratilgan texnologiya va usullarining ilmiy texnikaviy asosini yaratish va ilmiy asoslash dolzarb vazifalaridan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda g‘ildirakli avtomobillarda ishlatiladigan motor moylarining ishlash samaradorligini yaxshilashga hamda xizmat muddatini oshirishga qaratilgan texnologiyalarni integratsiya qilishga va avtomobil ekspluatatsiya davrida moylovchi materiallar sifatini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.02.2024 yildagi PQ-82-sonli “Respublikamizda zamonaviy texnologiyalar asosida yashil vodorod ishlab chiqarishni tashkil qilish va iqtisodiyot tarmoqlarining ushbu mahsulotga bo‘lgan talabini qondirish” to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq shu sohada ilmiy va amaliy izlanishlarning natijadorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishga keng joriy etish² hamda 18.03.2024 yildagi PQ-132-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida gibrid avtomobillarni ishlab chiqishni tashkil etish”³ nomli qarorlarida, jumladan qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini avtomobil sohasida keng rivojlantirish, mavjud muommalarga ma‘qbul yechim topish hamda avtomobil ishonchlilik xususiyatlarini oshirish yo‘lida motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash, vodorod-benzin aralashmasida ishlovchi dvigatel moyining eskirishiga olib keluvchi asosiy omillarni tanlash usuli ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.04.2021

¹ The Energy statistical review of world energy, 2023, 72th ed. KPMG.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.04.2024 yildagi PQ-82-sonli qarori, <https://lex.uz/ru/docs/-6813831>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2024 yildagi PQ-132-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/6842792>

yildagi PQ-5063-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari” tog‘risidagi qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalari va vodorodni ishlab chiqaruvchi, ulardan foydalanuvchi hamda ushbu turdagi energiya bilan ishlovchi uskuna, qurilma va texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmonida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonidagi avtomobil ishlab chiqarish sohasiga ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va mavjud muommalarni hal etishga yo‘naltirilgan meyoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik, ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan. Fanlar akademiyasi, Energetika vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘zstandart agentliglarining 22.08.2019 yildagi PQ-4422-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qarorining yo‘l xaritasidagi chora tadbirlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.04.2021 yildagi PQ-5063-sonli “O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari”ga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tajribasida avtomobil ekspluatatsiya davridagi sifatini yaxshilash maqsadida motor moylarining foydalanish xususiyatlari va chegaraviy ish muddatlarini tadqiq qilish masalasi bo‘yicha bir qator xorijlik olimlari ilmiy ishlar olib borishgan, jumladan, Marshall H.T., Oliver S.R. (AQSh), Williams K., Dyson A.(Buyuk Britaniya), Masahiko N., Takada M. (Yaponiya) va boshqalar. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlar ishlarini e’tirof etgan holda, aytish mumkinki, ularning ishlarida qo‘yilgan savol ya’ni, vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash tadqiq qilinmagan.

O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energetikasini rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish uchun qurilmalar yaratish, texnologik jarayonlarni parametrlarini asoslash va takomillashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar Vereshagin V.I., Kovalskiy B.I., Runda M.M., Yanovich V.S., Bezborodov Yu.N., Ganja V.A., Morozov A.G., Grigorev M.A., Salimov A.U., Qadirov S.M., Lebedov O.V., Sharipov Q.A., Bazarov B.I., Musurmonov R.K. Musurmanov R.Q. va boshqa olimlar tomonidan moylovchi materiallar ishlash texnologik jarayonlarini modellashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirish usul va algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishganlar. Shu bilan birga, vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti hamda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorligi asosida amaliy loyiha hamda “UzAutoMotors” AJ va Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti

hamkorligidagi ilmiy kengashning 2017 yil 21 sentyabrdagi 09/17-sonli majlis tadqiqot dasturi bilan bog‘liq.

Tadqiqotning maqsadi vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Avtomobil yonilg‘i ta‘minlash tizimida vodorod gazini qo‘shimcha sifatida o‘zaro uyg‘unlashuv usullari va zamonaviy holatini tahlil qilish hamda eksperimental tadqiqotlar o‘tqazish orqali yonilg‘i tejamkorligi va ekologik ko‘rsatkichlarini asoslash uslubini ishlab chiqish;

Vodorod-benzin yonilg‘i ta‘minlash tizimida avtomobil motor moyining maqbul eskirish matematik modelini nazariy tajribalar orqali asoslash;

Vodorod-benzin ta‘minotli avtomobilda motor moyining asosiy ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini laboratoriya sharoitida sinash uslubini ishlab chiqish;

Tadqiqot natijalarini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida vodorod-benzin dvigatelli avtomobil motor moyi olingan.

Tadqiqotning predmetini vodorod-benzin dvigatelli avtomobilning asosiy ekspluatatsion ko‘rsatkichlarining eskirishga bog‘liqlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida klassik mexanika, matematik tahlil va matematik statistika usullari, nazariy mexanika, pog‘onali tajriba jarayonlarini kompyuterlashtirish (imitatsion va simulyatsiya) tizimlari orqali tahlil qilish usullari, avtomobil nazariyasi, sintez usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Frolov-Rodziller tenglamasini qo‘llash orqali qo‘shimcha vodorod gazi benzinli dvigatellarda optimal yonilg‘i proporsiyasini barqaror ishlash shartlari va turg‘unlik rejimlari asosida matematik model yaratilgan;

Regression-korrelyatsion tahlili asosida vodorod-benzinli dvigatel moylarining asosiy fizik-kimyoviy xossalarini ekspluatatsiya sharoitlarida chegaraviy shartlari aniqlangan;

Nyuton interpolatsion qonuniyati orqali vodorod-benzinli ichki yonuv dvigatel moyining chegaraviy ish muddati asosida matematik modeli optimallashtirilgan;

Motor moyiga vodorod-benzinli yonilg‘i ta‘sir mexanizmini hisobga olingan holda almashtirish muddatlari uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Benzin-vodorod-havo aralashmali yengil avtomobillar ekspluatatsion, texnik-iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga imkon beradigan aniq tarkibiy qismi takomillashtirilgan;

Avtomobil vodorod-benzin yonilg‘i taminlash tizimi ilmiy nazariy va tajriba sinovlariga asoslangan matematik modeli yaratilgan;

Vodorod-benzin bazali avtomobillar yonilg‘i moylash tizimida motor moyining asoslangan chegaraviy ish muddati ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usul va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yonilg‘i ta‘minlash tizimi parametrlari va ish rejimlarining nazariy asoslanishi nazariy

mexanika va oliy matematika tamoyillariga asoslanadi, tajribalar natijalari matematik statistik usullar bilan qayta ishlanadi, nazariy va amaliy bilimlarning o‘zaro muvofiqligi tadqiqot natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga kiritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatiga ko‘ra avtomobil yonilg‘i ta‘minlash tizimi modellashtirish tili orqali matematik model integratsiya qilish usuli va analitik bog‘lanishlar o‘rtasida vazifalarini texnik, miqdor, qiymat indekslariga asoslangan chegaraviy ish muddati ishlab chiqildi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatiga ko‘ra mahalliy sharoitda avtomobil moylash tizimiga berilgan taklif va xulosalar, qo‘shimchalar asosida motor moyini eskirish belgilab berildi, hamda chegaraviy ish muddati asoslandi;

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslashda:

“UzAvtosanoat” AJ – 2017 yil Qozoqistonning Astana shahrida o‘tkazilgan kelajak energiyasi mavzusidagi Astana-2017 xalqaro ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmasida vodorod-benzin yonilg‘isi bilan ishlaydigan “Matiz” avtomobilini namoyish qilish vazifasi Turin politexnika universiteti jamoasiga yuklangan edi. (“UzAvtoMotors” AJ korxonasi 8-oktyabr 2021-yil ma‘lumotnomasi). Natijada Mazkur ko‘rgazmada universitet tadqiqotchi olimlari “Matiz” rusumli avtomobilning yonilg‘i ta‘minlash tizimini takomillashtirib, muaffaqiyatli qatnashildi;

Izlanishlar natijasida 2017-2021 yillar davomida alternativ yonilg‘i foydalanish ustida bir qancha nazariy va amaliy sinov ishlari olib borildi. Frolov-Rodziller tenglamasini qo‘llash orqali qo‘shimcha vodorod gazi benzinli dvigatellarda optimal yonilg‘i proporsiyasini barqaror ishlash shartlari va turg‘unlik rejimlari “Matiz” rusumli avtomobilning yonilg‘i ta‘minlash tizimiga joriy qilindi. (“UzAutoMotors” AJ korxonasi 8-oktyabr 2021-yil ma‘lumotnomasi). Natijada ichki yonuv dvigatel foydali ish koeffitsienti 5 % ga oshirish imkoni bergan;

Regression-korrelyatsion tahlili asosida vodorod-benzinli dvigatel moylarining asosiy fizik-kimyoviy xossalarni ekspluatatsiya sharoitlarida chegaraviy shartlari va ish muddatining eskirish tizimini eng maqbul algoritmi yaratildi va aniqlangan. Natijada dvigatel motor moyining fizik kimyoviy xususiyatlari nazariy va amaliy matematik statik tahlil asosida asosiy 4/10 tasi olindi, bunda eng e‘tiborli ko‘rsatkichi 6000-7000 km/soat bosib o‘tgan dvigatel motor moyi qovushqoqlik deb nomlash imkonini bergan;

Nyuton interpolyatsion qonuniyati orqali vodorod-benzinli ichki yonuv dvigatel moyining bosib o‘tgan km/soati ga qarab moylash materiallari eskirishining maqbul matematik modeli chegaraviy ish muddati optimallashtirilgan. (“UzAutoMotors” AJ korxonasi 8-oktyabr 2021-yil ma‘lumotnomasi); Natijada Chevrolet Genra G200 ichki yonuv dvigatelini standard va vodorod qo‘llagan holda 10 000 km masofa birlikda qancha sarf bo‘lishi nazariy va amaliy hisob kitob qilindi. Shahar sharoitida vodorod-benzin avtomobil 100 km masofani bosib o‘tganida 24 % yonilg‘i tejallishi imkonini yaratgan.

Ilmiy ish natija va algoritmlari vodorod-benzin yonilg‘isida ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy qilish imkonini berdi (“UzAutoMotors” AJ korxonasi 8-oktabr

2021-yil ma'lumotnomasi). Natijada vodorod-benzin dvigatel bilan jihozlangan mahalliy sharoitdagi avtomobillarda motor moyi chegaraviy ish muddatini asoslash misolida dvigatelning ishchi hajmi 1.5l bo'lgan avtomobillarda olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik (bitta avtomobil misolida) 2736000 so'mni tashkil etishi imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilindi va muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha umumiy 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Shulardan 1 ta maqola yuqori impakt faktorli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida vodorod gazini avtomobillarda qo'llangan holda motor moyiga bo'lgan ta'siri dolzarbligi va zarurlik darajasi ilmiy asoslangan. Ishning asosiy maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Ishning ilmiy yangiligi vodorod-benzin yonilg'isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash asosiy natijalari, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek dissertatsiya ishi natijalarining amaliyotga tadbiqu, mavzu bo'yicha nashr etilgan ishlar va uning tarkibiy tuzilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar yoritilgan.


Dissertatsiya ishining «**Vodorod-benzin yonilg'isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining mavjud holati**» nomli birinchi bobida mavjud vodorod-benzin yonilg'isida ishlaydigan avtomobillar tahlili, avtomobillarni gibrid vodorod gazi bilan birga ishlatishni ekologik asoslari va gibrid vodorod-benzin avtomobillarining dunyo bozoridagi ulushi hamda ularning energetik tahlili o'rganilgan. Shundan kelib chiqib, vodorod-benzin yonilg'isida ishlaydigan avtomobillarning energetik tahlili bo'yicha mavjud metodlar va muammo yechimi bo'yicha texnika-texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari ko'rib chiqilgan. Neft mahsulotlarining 25% avtomobillar yonilg'i hom-ashyosiga to'g'ri keladi. Bulardan chiquvchi zaharli gazlarning 17% ekologiyani zararlantiruvchisidir.⁴ Vodorod ekologik toza, xavfsiz va arzon potentsiallariga ega yonilg'i gaz turi hisoblanadi. Alternativ vodorod gazini boshqa tur yonilg'ilar bilan solishtirib ko'radigan bo'lsak, benzin-450 °C, Propan-914 °C, metan-1003 °C, Vodorod-1085 °C ga to'g'ri keladi, vodorodning yonuvchanligi bir muncha yuqori qolgan tur yonilg'ilarga qaraganda, bu esa bevosita detonatsiya xavfini

⁴ Reitz RD, Ogawa H, Payri R, et al. IJER editorial: the future of the internal combustion engine. Int J Engine Res 2020.

kamaytiradi.⁵ Yonuvchanlik diapozoni solishtirish shuni ko‘rsatdiki: benzin-7.6:1.4, propan-10.1:2.1, metan-15:5, vodorod-75:4 nisbatlariga to‘g‘ri keladi, vodorod uchun optimal yonish sharoiti 29:1 hisoblanadi.⁶

Tadqiqotning **“Vodorod-benzin avtomobil motor moylarining chegaraviy ish muddatini asoslash bo‘yicha nazariy asoslar tadqiqot asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida vodorod-benzin ichki yonuv dvigatellarida tadqiqot uchun motor moyini qo‘llash nazariy asoslari haqida yoritib o‘tilgan.

Vodorod gazi qo‘shimcha sifatida ichki yonuv dvigatellarida qo‘llashning fanga ma‘lum 3 ta turi bor. Bular, 1- ichki yonuv dvigateliga vodorod gazini to‘g‘ridan to‘g‘ri jo‘natish, keyingi ilmiy usulda ichki yonuv dvigateli slindr tashqarisida gazlar aralashmasini yonish kamerasiga jo‘natiladi. 3- usulda vodorod gazi qo‘shimcha sifati qo‘llash uchun maxsus injektorlardan foydalaniladi. Ilmiy ishda 2–usuldan foydalanildi. Vodorod boshqa tur qo‘shimcha gazlariga qaraganda deyarli har qanday haroratda yonuvchan, sababi 4 % havo aralashmasi ham yetarli hisoblanadi. Yonish jarayoni uchun 0.02 mJ (n.sh.) energiya talab etiladi, solishtirib ko‘rsatilsa benzin yonish uchun 240 mJ talab etiladi.



1-rasm. Avtomobil doimiy tok manbai sarfining qiyosiy tahlili.

Vodorod olishning xavfsiz va eng arzon usullaridan bo‘lgan elektrolizning LTE - (>200 °C) past haroratli – (low temperature electroliz), AE - (60-98 °C) alkani electrolysis (ishqorli), PEM – (50-80 °C) Proton exchange membrane (proton almashinish membranali), AEM – (40-80 °C) Anion exchange membrane (anion almashinish membranali), HTE – (700-100 °C) high temperature electroliz (yuqori temperaturadagi elektroliz) olish usullari malum bo‘lib. Tadqiqotda asosan energiya


⁵ White C.M., Steeper R.R., Lutz A.E. The hydrogen-fueled internal combustion engine: a technical review. I.J. Hydrogen Energy 2006; 31(10):1292–305.

⁶ B. Lewis and G. von Elbe, Combustion, Flames and Explosions of Gases, 3rd ed., Academic Press, Orlando, 1987.


qiymatining foydali ish koeffitsienti 60-80 % lar atrofidagi AE – ishqorli vodorod olish usulidan foydalanildi. Nazariy asoslar tahliliga ko‘ra doimiy akkumulyotir tok manbaining 1 % sarfi bilan vodorod gazi qo‘shimcha olishga erishiladi.

Vodorod gazini qo‘llash usuli.

Amaliy tajribalar 2017-2020 yillar davomida yengil avtomobillarda olib borildi, bunda 30 ta yengil turdagi amaliy tajriba avtomobillaridan Chevrolet Cobalt, Chevrolet Matix, Chevrolet Lacetti 3 ta turkumidagi yengil tur avtomobillar tanlab olindi. Amaliy ish natijalari sarhisobi 2017–yil Qozoqiston Ostona shahridagi EXPO-2017 ko‘rgazmasida o‘z samarasini ko‘rsatdi.



2-rasm. Amaliy tajriba yengil turdagi avtomashinalar. Yengil turdagi avtomobillarda vodorod generatorini o‘rnatish amaliy test jarayonlari.



3-rasm. Vodorod-benzin yonilg‘i taminlash tizimi.

1-akkumulyotir, 2-peredoxranitil, 3-rele, 4-kalit, 5-rele panel, 6-RAM, 7-IYoD, 8-gazlar kirish kollektori, 9-generator.

Ikkinchi xavfsiz usul sifatida, amiran generatori avtomobillarda qo‘llanildi, bu yonilg‘i sarfini 38 % ga kamaytirishga erishildi. Bunda har 1000 km masofadan keyin texnik servis xizmat ko‘rik talab etiladi.

Ushbu tadqiqotda motor moyining eskirish matematik modeli asoslashda quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- Gigroskoplik omili - (γ)
- Taxminiy vodorod masofasi - (l)
- Aralashmaning gidravlik omillari ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsiyent - (α)
- Vodorod-benzin yonilg'ilarining to'liq aralashish fazaga ko'ra - (Q/q_{cm})
- Vodorod-benzin aralashma maksimal normasi - (n_i)
- Vodorod-benzin aralashma minimal normasi - (n_k)
- Aralashma miqdori - (β)
- 0.9-2 qiymatlarni qabul qiluvchi o'zgarish proporsionallik koeffitsientini - (S)
- Vodorod aralashgan benzinning o'rtacha chuqurligi - (H)
- Vodorod benzinda batamom tarqalish uzunligi - (L)
- 1 ga teng qiymat - (A)
- Aralashma meyori - (n_p)
- Reynoldsning diffuziya soni - (Re)
- Diffuziya boshlanishidan benzinga aralashib ketguncha bo'lgan tarqalish koeffitsienti - (φ)
- Vodorodning benzin bilan batamom aralashish (x)
- Benzinning vodorod bilan aralashish kengligi (B)
- Aralashmasning o'rtacha tezligi (V)
- Vodorod oqimi tezligining benzin oqimi tezligiga nisbati bo'lib ($m = \vartheta_p/\vartheta_0$)
- Struyaning oqib chiquvchi teshikdan ixtiyoriy masofadagi diametrik (d)
- Benzinning kelib tushayotgan birlik struyasi diametri - (d)

Motor moyi gidroskoplik xususiyati uning xarorati ortib borgan sayin uziga vodorodni yutib olishi bilan tavsiflanadi. Buni, yonilg'i benzin-vodorod aralashma oqimining miqdori Rodziller bo'yicha γ koeffitsienti bilan ifodalanadi:

$$\gamma = \frac{1 - e^{-\alpha^3 \sqrt{l}}}{1 + e^{-\alpha^3 \sqrt{l}} \frac{Q}{q_{cm}}} \quad (1)$$

Vodorod benzin aralashmasining tarkibiy holati normasi hamda maksimal miqdordagi benzinga ko'p karrali vodorod aralashtirishlar soni quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$n_i = \frac{(q_{cm} + \gamma Q) \delta b}{q_{cm}} \quad (2)$$

Minimal miqdordagi benzinga ko'p hajm miqdordagi vodorod aralashtirishlar soni esa quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$n_k = \frac{(\beta q_{cm} + Q)}{\beta q_{cm}} \quad (3)$$

Vodorod gazi benzinga aralashishtirish mumkin bo'lgan qismini ko'rsatuvchi koeffitsient quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\beta = \frac{1 - e^{-\alpha(\sqrt[3]{l} - \sqrt[3]{l_0})}}{1 + e^{-\alpha(\sqrt[3]{l} - \sqrt[3]{l_0})} \frac{Q}{q_{cm}}} \quad (4)$$

Benzin yonilg'isini vodorod gazi bilan aralashtirish meyorini quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$n_p = \frac{S\varphi H}{Ax(B-L)\lg \text{Re}_\delta} \quad (5)$$

Diffuzion aralashmalar Reynoldsning son qiymati quyidagi formulada ifodalanadi:

$$\text{Re}_\delta = \frac{gH}{D} \quad (6)$$

$$D = \frac{gH}{2mC} \quad (7)$$

$$2m = 0,7C + 6 \quad (8)$$

$$A = \frac{S_{\text{экс}}}{S_{\text{меор}}} \quad (9)$$

Diffuziya boshlanishidan benzingga aralashib ketguncha bo'lgan tarqalish koeffitsienti quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi = \frac{l_{\text{фарв}}}{l_{\text{прям}}} \quad (10)$$

O'qqa nisbatan simmetrik bo'lgan ixtiyoriy kesimdagi vodorod struyasining boshlang'ich aralashish darajasi uchun quyidagicha ifodalanadi:

$$n_H = \frac{0,258}{1-m} \left(\frac{d}{d_0} \right)^2 \left[\sqrt{m^2 + 8,1(1-m) \left(\frac{d_0}{d} \right)^2} - m \right] \quad (11)$$

Vodorod va benzinning boshlang'ich qo'shilishidagi limit qiymati qaralayotgan kesimning maksimal diametri benzinning chuqurligiga teng bo'lib, boshlang'ich aralashish darajasi uchun formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$n_{\delta_{\text{ен}}} = \frac{0,258}{1-m} \left(\frac{H}{d_0} \right)^2 \left[\sqrt{m^2 + 8,1(1-m) \left(\frac{d_0}{H} \right)^2} - m \right] \quad (12)$$

Demak, benzingga vodorod qo'shish formulasini quyidagicha yoziladi:

$$n_{\text{обц}} = \frac{(q_{\text{вodorod}} + Q)}{q_{\text{вodorod}} + Q e^{-\beta \left(\frac{l}{R} \right)^{\frac{1}{4}}} + Q_{\delta}} \quad (13)$$

Vodorod kam qo'shilgandagi aralashma ko'rsatgichi quyidagicha ifodalanadi:

$$n_{\text{обц}} = \frac{(q_{\text{вodorod}} + Q)}{(Q - Q_{\text{аралашма}} + q_{\text{вodorod}}) e^{-\beta \left(\frac{l}{R} \right)^{\frac{1}{4}}} + Q_{\text{аралашма}}} \quad (14)$$

Benzingga vodorod qo'shilgandagi umumiy aralashma miqdori quyidagicha ifodalanadi:

$$Q_H = n_H q \quad (15)$$

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi qovushqoqlik koeffitsientining qiymatlari asosida 4.2.12-jadval tuzib, Leybnits interpolyatsion formulasini qo‘llab, vodorodning qo‘yilish meyoriga asoslangan grafiklarini quriladi.

O‘zgaruvchan parametrlarni 1- jadvaldan olinadi va bu qiymatlar asosida Nyuton interpolyatsion formulasi quyidagicha yoziladi:

$$L(x) = y_0 \frac{(x - x_1)(x - x_2)(x - x_3)}{(x_0 - x_1)(x_0 - x_2)(x_0 - x_3)} + y_1 \frac{(x - x_0)(x - x_2)(x - x_3)}{(x_1 - x_0)(x_1 - x_2)(x_1 - x_3)} + y_2 \frac{(x - x_0)(x - x_1)(x - x_3)}{(x_2 - x_0)(x_2 - x_1)(x_2 - x_3)} + y_3 \frac{(x - x_0)(x - x_1)(x - x_2)}{(x_3 - x_0)(x_3 - x_1)(x_3 - x_2)} \quad (16)$$

Tadqiqotning “**motor moyi asosiy operatsion xususiyatlari va chegaraviy ish muddatini o‘rganish metodikasi**” deb nomlangan **uchinchi bobida** benzin dvigateliga qo‘shimcha vodorod gazini xavfsiz integratsiya qilish metodikasiga bag‘ishlangan.



4-rasm. Eksploatatsion natijalarini aniqlash integrali.


Motor moyi laboratoriya tajriba sinov ekpluatatsiya qilish metodikasida moyning chaqnash haroratini aniqlashda GOST 4333, ISO 2592 bo‘yicha TVO uskunasi foydalanildi. Chaqnash chegarasi 79-360 °C oraliqda tigelda moy namunadan gorilka orqali chaqnash hosil bo‘lishi bilan termometr harorat ko‘rsatkichi qayd qilib olinadi.



5-rasm. Laboratoriya chaqnash haroratini aniqlash jarayoni.

Moyning ishqor sonini aniqlashda laboratoriya sharoitida I-160-MI uskunasi yordamida pH faolligini aniqlanadi. Bunda 1 gr motor moy namuna HCl eritmasi bilan

birga aralastirilib elektrodlar yordamida sentrifuga qo‘yiladi. Uskunadagi table soni 4 ga tushguncha ushlab turiladi, olingan natija formulaga solinib ishqor soni aniqlanadi.



6-rasm. Motor moyi ishqor sonini aniqlash jarayoni.

Qovushqoqlik indeksini 25371-97 (ISO 2909-81) xalqaro standartlari orali B usuli yordamida 40 °C hamda 100 °C haroratlarda 15-20 minut davomida quyilib natijalar olinadi hamda ulardan olingan natijalar quyidagi tenglamalarda ifodalanadi:

$$VI = \left\{ \frac{[(\text{antilog } N) - 1]}{0.00715} \right\} + 100 \quad (17)$$

$$N = \frac{\log H - \log U}{\log Y} \quad (18)$$

Agarda 100 °C da 70 mm²/s dan yuqori bo‘lsa quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$H = 0.1684Y^2 + 11.85Y - 97 \quad (19)$$

Bunda:

- 40 °C va 100 °C lardagi kinematik qovushqoqligi - (U, Y)
- Maxsus jadval qiymati - (H)



7-rasm. 40 °C hamda 60 °C haroratlarda motor moyi qovushqoqlikni aniqlash jarayoni.

“Qo‘shimcha vodorod yonilg‘isining benzil dvigatel motor moylarining ekologik iqtisodiy karakteristikalariga tasirini eksperimental tadqiq qilish natijalari” deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** ilmiy ish davomida olingan vodorod-benzin dvigatelli sinov test natijalari, motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash matematik model natijalari hamda IYoD motor moyi laboratoriya sinov test natijalari keltirib o‘tilgan.

IYoD tashqi tezlik xarakteristikalarini hisoblash va qurish loyihalashda nuqta koordinatalari prof. Leirdman usuli yordamida IYoD tezlik xususiyatlarini hisoblash usulidan foydalaniladi. Ushbu usul quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:


- IYoD ishchi quvvati - (N_e)
- IYoD maximum ishchi quvvati - (N_{max})
- IYoD tashqi tezlik xarakteristikalarini hisoblash va qurish loyihalashdagi koordinatalari (N_{emax}, n_N)
- Benzinli IYoD uchun ($a, b, c=1$)
- IYoD ishchi momentining o‘zgarish xarakteristikalarini (M_e)
- Uzatma valining aylanishlar soni (n_e)

IYoD ishchi quvvat xarakteristikasi nazariy hisob kitob formulasi quyidagicha ifodalanadi:

$$N_e = N_{emax} \left[a \frac{n_e}{n_N} + b \left(\frac{n_e}{n_N} \right)^2 - c \left(\frac{n_e}{n_N} \right)^3 \right] \quad (20)$$


IYoD ishchi momentining o‘zgarish xarakteristikasini nazariy hisoblash quyidagi formula bo‘yicha ifodalanadi:

$$M_e = \frac{N_e}{n_e} * 716.2 \quad (21)$$




8-rasm. Avtomobil IYoD tortish tezlik xarakteristika grafigi.

Eksperimental test natijalarining matematik statistik tahlil natijalari shahar sharoitida ikkinchi hamda to‘rtinchi uzatmalarda 2300 rpm dan 2500 rpm gacha aylanishlar soniga erishildi.




9-rasm. (ko'k) benzinli hamda (qizil) benzin-vodorod IYoD tezliklar kesimida aylanishlar sonini qiyoslash grafigi.

Grafikda drossel 25 % dan 35% gacha o'zgarganda quvvat benzin maksimal quvvati 60 Nm dan 80 Nm gacha oshishi ifodalangan.




10-rasm. (ko'k) benzin IYoD hamda (qizil) benzin-vodorodli IYoD quvvatining drossel valining ochilish foizlarining qiyosiy grafigi.

Motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash matematik statistik tahlil usuli yordamida olib borildi. Bunda Matlab dasturidan foydalanildi hamda kvadrat tenglamaning fazodagi kesim ko‘rinishlari quyidagi grafidagi ifodalanadi.




11-rasm. Vodorod gazining benzin tarkibiga absorbsiya jarayonining fazodagi ko‘rinishi.




12-rasm. Motor moyi eskirish grafigi va uning chegaralarini aniqlashning fazodagi ko‘rinishi.


Motor moyini chaqnash harorati ochiq tigelli TVO apparatida GOST 4333 va ISO 2592 bo‘yicha sinaladi. (chaqnash harorati chegarasi 6 °C-400 °C gacha). 40 °C hamda 100 °C da standartlar bo‘yicha qovushqoqlik koefitsientini VI aniqlanadi. (TBN) Ishqor soni I-160-MI laborotoriya ionomeri apparatida standartlar bo‘yicha sinaladi.



13-rasm. Motor moyining chaqnash harorati.



14-rasm. Motor moyi ishqor soni.



15-rasm. 40 °C hamda 100 °C dagi qovushqoqlik qiymati.

UMUMIY XULOSALAR.

“Vodorod-benzin yonilg‘isida ishlaydigan avtomobillar motor moyining chegaraviy ish muddatini asoslash” mavzusini o‘rganish asosida quyidagi umumiy xulosalar qilindi:

1. Dunyoda alternativ vodorod gazini benzin dvigatelli avtomobillarda qo‘shimcha sifatida qo‘llagan holda motor moyiga sinergetika masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shuningdek, bizning sharoitda ushbu texnologiyalarni tadbiq qilish darajasi yuqori emasligi, muammolarni hal etishda soxadagi zaxiralarning mavjud ekanligi aniqlandi va eksperimental tadqiqotlar asosida foydali ish koeffitsientini 5 % ga oshirgan holda yonilg‘i sarfini 24 % ga kamaytirildi, va ekologik tasir gazlar NO_x , CO, HC lar miqdori mos holda 15%, 18%, 14% gacha kamaytirildi.

2. Avtomobil vodorod-benzin yonilg‘i taminlash tizimida vodorod gidroskopik diffuziya yonilg‘i sinerjiyasi D.Rodziller formulasi bilan asoslandi hamda o‘qqa nisbatan simmetrik bo‘lgan ixtiyoriy kesimli vodorod konsentratsiyasining boshlang‘ich aralashish darajasi formulasi nazariy tajribalar asosida avtomobil motor moyining eskirish matematik modeli yaratildi.

3. Avtomobil vodorod-benzin ta‘minot tizimi tahlil qilish asosida mahalliy sharoitda alternativ yonilg‘i bilan motor moyi ta‘sirlashuvida moyning asosiy 3 ta parametrlari, yani chaqnash harorati, qovushqoqlik ko‘rsatkichi, ishqor soni hamda kislotalar sonlari misolida qo‘llab nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Matematik modeli asosida Nyuton interpolatsion formulasi yordamida eskirish algoritmidagi amaliy va nazariy tadqiqotlar 3% tafovutda erishildi. Shuningdek, ekspluatatsiya sharoitida avtomobil moylash tizimlaridan foydalanishning sinergetika konsepsiyasiga binoan tartib va moslashuvchanlik parameter tushunchalari asoslandi.

4. Vodorod-benzin avtomobil parametrlari tadqiqotlar o‘tkazilib, quyidagi natijalarga asoslandi:

- Chevrolet Genra G200 ichki yonuv dvigatelini standard va vodorod qo‘llagan holda 10 000 km masofa birlikda qancha sarf bo‘lishi nazariy va amaliy hisob kitob qilindi.

- O‘tkazilgan tajriba sharoitlarida standard va vodorod-benzinli avtomobil yonilg‘i ta‘minlash tizimlari uchun Nyuton interpolatsion tenglamalari usuli yordamida aniqlandi.

- Shahar sharoitida vodorod-benzin avtomobil 100 km masofani bosib o‘tganida 24 % yonilg‘i tejaldi. Bitta avtomobil bir yilda 30000 km masofani bosib o‘tadi deb oladigan bo‘lsak, o‘rta hisobda 648 litr yonilg‘i tejalganligi amaliy tahliliy usullar bilan aniqlanadi. Bunda vodorod benzin sinerjiyasi asosida avtomobil motor moyi har 10000 km masofa qaraganda 500-1000 km oldinroq almashtirish kerak.

5. Vodorod-benzin dvigatel mahalliy sharoitda motor moyi chegaraviy ish muddatini asoslash misolida dvigatelning ishchi hajmi 1.5l bo‘lgan avtomobillarda olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik (bitta avtomobil misolida) 149796000 so‘mni tashkil etadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
PhD.22/01.02.2022.T.144.01 AT TURIN POLYTECHNIC UNIVERSITY IN
TASHKENT**

TURIN POLYTECHNICAL UNIVERSITY IN TASHKENT

SHARIPOV ALISHER KALBAYEVICH

**VALIDATION OF AUTOMOTIVE ENGINE OIL LIFE CYCLE IN A
HYDROGEN FUELLED ENGINES**

05.08.06 – Wheeled and tracked vehicles and their operation

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON TECHNICAL SCIENCES**

TASHKENT – 2024

The theme of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number №B2022.2.PhD/T2002

The dissertation has been prepared at Turin polytechnic university in Tashkent.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website www.polito.uz and on the website of “ZiyoNet” Information and educational portal www.ziynet.uz.

Scientific adviser: **Inoyatkhodjayev Jamshid Shuhratullayevich**
doctor of technical sciences, professor

Official opponents: **Xankelov Tavbay Qarshiyevich**
doctor of technical sciences, professor.

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li
doctor of philosophy of technical sciences.

Leading organization: **Andijon machine-building institute**

The defense will take place “_____” _____ 2024 at _____ at the meeting of Scientific council PhD.22/01.02.2022.T.144.01 at Turin Polytechnic University in Tashkent (Address: 100095, Tashkent, Kichik khalka yuli 17, tel./fax : (998-71) -246-50-92, e-mail: info@polito.uz)

The doctoral dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of the Turin Polytechnic University in Tashkent (Address: 100095, Tashkent, Kichik khalka yuli 17, tel./fax: (998-71) -246-50-32, e-mail: irc@polito.uz)

Abstract of the dissertation sent out on “_____” _____ 2024 y.

(mailing report No. _____ on “_____” _____ 2024 y.)

N. Makhamatov
Chairman of the scientific council
awarding scientific degrees,
doctor of technical sciences, professor

T.R.Pulatov
Scientific secretary of scientific council
awarding scientific degrees,
doctor of philosophy

S.Ruzimov
Chairman of the academic seminar under
the scientific council awarding scientific degrees,
doctor of technical sciences, dotsent

INTRODUCTION (annotation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The demand for petroleum products, i.e. gasoline and diesel, which are the source of fuel for cars in the world, has increased by 3.1% and 1%, respectively. Increasing the operating performance of vehicles and analyzing fuel trends requires the reduction of traditional fuel types and the gradual use of alternative fuel types, including environmentally friendly, safe and cheap energy source hydrogen gas. is doing. Alternative hydrogen gas is currently attracting great interest from various developed countries in the global energy sector, which in itself is paying special attention to solving existing problems by expanding the use of mass alternative fuel type in the future.

In the world, using hydrogen fuel as an additive in gasoline-based cars, scientific research activities are being conducted aimed at developing new scientific and technical solutions of resource-saving technologies and technical means to determine the limit working life of motor oil. In this regard, a deep static analysis of the parameters of motor oils serves to significantly increase the reliability indicators of the engine. Hydrogen fuel, with its hydrosopic, physical and chemical properties, is considered one of the urgent tasks of creating a scientific and technical basis of technologies and methods aimed at improving the service life of motor oils.

In recent years, in our republic, special attention has been paid to the integration of technologies aimed at improving the performance and service life of motor oils used in wheeled vehicles, and improving the quality of lubricants during vehicle operation. In accordance with the decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-82 dated 23.02.2024 "Organizing the production of green hydrogen based on modern technologies in our Republic and meeting the demand of economic sectors for this product", the effectiveness of scientific and practical research in this field increase, wide introduction to the development of innovative technologies and the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-132 of 18.03.2024 entitled "Organizing the development of hybrid cars in the Republic of Uzbekistan", including the wide development of renewable and hydrogen energy in the automotive sector, the important tasks of finding an acceptable solution to the existing problems and improving the reliability characteristics of the motor oil are determined. In the implementation of these tasks, one of the important issues is the justification of the limit service life of engine oil for cars running on hydrogen-gasoline fuel, the development of a method for selecting the main factors that lead to the wear of engine oil running on a hydrogen-gasoline mixture.

This scientific research work is based on the decision of the President of the Republic of Uzbekistan dated 09.04.2021 No. PQ-5063 "Measures for the development of renewable and hydrogen energy of the Republic of Uzbekistan", the producers of renewable energy sources and hydrogen, their users and this testing of energy-powered equipment, devices and technologies, as well as a vehicle in the decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 18.01.2022 No. PF-60 on the development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026 This dissertation research serves to a certain extent to carry out scientific research on the impact on production areas and to implement the

tasks defined in the regulatory legal documents aimed at solving existing problems.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the Republic. This research is about the development of republican science and technology: II. "Energy, energy and resource saving, was carried out within the priority direction. Actions in the roadmap of the Decision of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4422 of 22.08.2019 of the Academy of Sciences, Ministry of Energy, Ministry of Innovative Development, Uzstandart agencies and Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5063 of 09.04.2021 "Development of renewable and hydrogen energy in the Republic of Uzbekistan measures".

Level of study of the problem. In the world experience, a number of foreign scientists have conducted scientific work on the issue of researching the characteristics of the use of motor oils and the limit work periods in order to improve the quality of the car during its operation, including Marshall H.T., Oliver S.R. (USA), Williams K., Dyson A. (Great Britain), Masahiko N., Takada M. (Japan) and others. Acknowledging the work of the above-mentioned scientists, it can be said that the question raised in their work, that is, the justification of the limit service life of motor oil for cars running on hydrogen-gasoline fuel, has not been researched.

Development of renewable energy in the Republic of Uzbekistan, research on the creation of devices for the improvement of production processes, justification and improvement of parameters of technological processes Vereshagin V.I., Kovalsky B.I., Runda M.M., Yanovich V.S., Bezborodov Yu.N., Ganja V.A. , Morozov A.G., Grigorev M.A., Salimov A.U., Kadyrov S.M., Lebedov O.V., Sharipov Q.A., Bazarov B.I., Musurmonov R.K. Musurmanov R.Q. and other scientists have achieved significant results in the development of methods and algorithms for modeling, optimization and improvement of the automated control system. At the same time, the issues of justifying the limit service life of engine oil for cars running on hydrogen-gasoline fuel have not been sufficiently studied.

The connection of the dissertation research with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. The dissertation research is related to a practical project based on the cooperation of the Turin Polytechnic University in Tashkent and the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan and the research program of the scientific council meeting No. 09/17 on September 21, 2017 in cooperation with UzAuto Motors JSC and Turin Polytechnic University in Tashkent.

The purpose of the study is to justify the limit of service life of engine oil for cars running on hydrogen-gasoline fuel.

Tasks of the research:

Analyzing the state-of-the-art compatibility methods of hydrogen gas as an additive in the vehicle fuel supply system, and developing a method for justifying fuel economy and environmental performance by conducting experimental research;

Basing the mathematical model of optimal wear of motor oil in the hydrogen-gasoline fuel supply system through theoretical experiments;

Development of a method of testing the main operating parameters of motor oil in a hydrogen-gasoline vehicle in laboratory conditions;

Development of recommendations for the application of research results and determination of economic efficiency of implementation;

As the object of the study, motor oil of a car with a hydrogen-gasoline engine was taken.

The subject of the study is the dependence of the main operational indicators of the car with a hydrogen-gasoline engine on wear and tear.

Research methods. Classical mechanics, mathematical analysis and mathematical statistical methods, theoretical mechanics, methods of analyzing step-by-step processes of experience through computerization (imitation and simulation) systems, automobile theory, and synthesis methods were used in the research process.

The scientific novelty of his research is as follows:

Using the Frolov-Rodziller equation, a mathematical model was created based on stable operating conditions and stagnation modes of the optimal fuel ratio in gasoline engines with additional hydrogen gas;

